



ZAMONAVIY TA'LIM STANDARTLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING USTUVORLIGI

Dexqonova Jamilaxon Yodgorjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi e-mail:

jamilaxondexqonova23@gmail.com

+998999930723

Annotatsiya.

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim standartlarida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni, mohiyati va uning an'anaviy bilimga yo'naltirilgan modeldan farqli jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'quvchilarda amaliy ko'nikma, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish hamda ijtimoiy faollikni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati yoritiladi. Zamonaviy ta'lim standartlari asosida tayanch va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari hamda ularni baholash mezonlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, ta'lim standarti, kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiyalar, kasbiy kompetensiya, innovatsion ta'lim, ta'lim sifati.

Аннотация.

В данной статье рассматривается приоритет компетентностного подхода в современных образовательных стандартах. Раскрываются сущность и содержание компетентностного подхода, а также его отличия от традиционной знаниевой модели обучения. Особое внимание уделяется формированию у обучающихся практических навыков, критического мышления, способности принимать решения в проблемных ситуациях и социальной активности. Анализируются механизмы развития ключевых и профессиональных компетенций в соответствии с современными образовательными стандартами и критерии их оценки. Результаты исследования подтверждают, что компетентностный подход является важным фактором повышения качества и эффективности образования.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, образовательный стандарт, компетентностный подход, ключевые компетенции, профессиональная компетенция, инновационное образование, качество образования.

Annotation.

This article examines the priority of the competency-based approach in modern educational standards. It analyzes the essence and content of the competency-based



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



approach and highlights its differences from the traditional knowledge-oriented model of education. Particular attention is paid to the development of practical skills, critical thinking, decision-making abilities in problem situations, and social activity among learners. The mechanisms for developing key and professional competencies within modern educational standards, as well as assessment criteria, are discussed. The research findings indicate that the competency-based approach is a crucial factor in improving the quality and effectiveness of education.

Keywords: *competence, competency, educational standard, competency-based approach, key competencies, professional competence, innovative education, quality of education.*

Milliy istiqlol sharofati tufayli respublikamizda boshqa ijtimoiy sohalar qatori ta'lim va tarbiya sohasining ham umumjahon ta'lim standartlariga mos holda rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar, moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar yaratildi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya sohasida olib boriladigan ishlarning dasturilamali bo'lgan ta'lim to'g'risida shunday degan edi: "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi". Dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish muhimligi ta'kidlandi. Xalq ta'limi vazirligiga ushbu tajriba asosida Milliy o'quv dasturini ishlab chiqib, 2021/2022 o'quv yilidan boshlab ta'lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo'yildi. Yangi metodikani samarali yo'lga qo'yish uchun barcha maktab o'qituvchilari videoaloqa orqali xorijiy mutaxassislar ishtirokida o'qitiladi. Eng muhimi, bu jarayonlarga pedagogika yo'nalishidagi universitet va institutlar ham jalb qilinib, pedagog kadrlar tayyorlash metodikasi ham yangilanadi. Shunday ekan, bugungi kunda ta'lim jarayoni oldiga erkin va mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yildi. Bu maqsadni amalga oshirish esazamonaviy pedagog oldiga bir qator mas'uliyatlarni yuklaydi. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, ta'lim mazmuni samaradorligini oshirish, dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish maqsadida Yevropaning rivojlangan mamlakatlari uzluksiz ta'lim tizimining davlat ta'limstandartlarini ishlab chiqish tajribasiga asoslangan holda, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan uzluksiz ta'limning davlat ta'lim standartlari loyihasi ishlab chiqilgandi. Bu loyiha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2014-yil 15-avgustdagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari loyihalarini tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi qo'shma buyrug'i bilan tasdiqlangan edi. Shunga binoan, maktab



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



dasturi talablarining takomillashishi o'qituvchi va o'quvchilar hamda jamoatchilik, ota-onalar oldiga yangi vazifalar qo'yildi. Shundan buyon ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish va takomillashtirish xususida fikr bildirilmoqda. Kompetentlik (lot: competens -layoqatli, qobiliyati bor) shaxs bilim, ko'nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqeyi va o'ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolar hal qilishiga yetarliligi hamda haqiqiy moslik darajasi hisoblanadi. Kompetentlik tarkibiga sof kasbiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, tashabbuskorlik, hamkorlik, guruhda ishlash layoqati, kommunikativ qobiliyati, real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va foydalana olish xususiyatlari ham kiradi. "Kompetentli pedagog muayyan pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim", - deb ta'kidlaydi rus olimlari S.Ye.Shishov, V.A.Kalney. Ularning fikricha, kompetentlik va mahorat so'zlari alohida-alohida tushunchadir. Mahorat –bu o'ziga xos vaziyatdagi harakat. Mahorat harakatdagi kompetensiyani ifodalaydi. Kompetensiya esa, mahoratning samarasidir². L.T.Axmedovanning hammualliflikda yozgan maqolasida³uzluksiz ta'lim tizimidagi turli yondashuvlar haqida fikr yuritib, kompetensiyaviy yondashuvga alohida to'xtalib o'tgan. Maqolada kommunikativ, lingvistik, sosiolingvistik, pragmatik kompetensiyalar xususida fikr yuritgan.M.Umaraliyeva maqolasida⁴o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'sir ko'rsatuvchi tashqi omillar sifatida faoliyat olib borayotgan va yashayotgan muhit, hamkorlik, o'zini o'zi anglash va o'zligini ifodalashga bo'lgan ehtiyojyoritilgan bo'lsa, M.Rayemov⁵zamonaviy professional kompetensiyaga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarning professional tayyorgarligi masalasi –hozirgi zamon oliy professional ta'limning dolzarb muammolaridan biri hisoblanishi haqida ta'kidlab, matematik kompetentlikning asosini matematik tayyorgarlikka bog'liqligini uqdiradi. "Matematik tayyorgarlik nafaqat amaliy masalalarni yechish uchun zarur bo'ladigan bilimlar majmuini, balki professional faoliyatga bo'lgan real munosabatni shakllantirishni, o'zini o'zi mustaqil ravishda rivojlantira olish, muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda o'zining qobiliyatidan foydalana olish ko'nikmalarini ta'minlay olishi lozim", -deydi muallif.M.Qurbonova maqolasida⁶nutqda yuzaga keladigan kommunikativ xatolar fikrni idrok etilishini murakkablashtirishi, bolalar nutqiga xos pragmatik to'siqlarning yuzaga kelishi sabablari xususida fikr yuritisa, F.Ro'ziqulov, J.Pulatov⁷milliy istiqlool g'oyasi va ma'naviyat asoslari ta'limi orqali o'quvchilarda internet, OAV va boshqa tarmoqlardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, ma'lumotlar bazasini yaratish, mustaqil to'play olish, ularni tahlil etish, baholash, axborotni qayta ishlash va ularni uzatish, asosiylarni tanlab olish kompetensiyalarni shakllantirish natijasida ularda ma'naviy va ma'rifiy, jismoniy o'z-o'zini rivojlantirish, o'zining his-tuyg'ularini boshqara olish malakalari shakllantirish haqida ta'kidlaydi. M.Ahmedov⁸musiqqa darslarida o'quvchilar kompetensiyasini shakllantirish, G.Karimova⁹nutqiy kompetentlikni oshirish usullari, A.Abdullayev¹⁰o'quvchilarda



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



lingvistik kompetensiyani shakllantirishda nazariy bilimlar berish muammolari xususidagi fikrlari kompetensiya atamasi keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda kompetentlik atama sifatida ta'lim tizimiga kirib keldi. Ammo turlicha talqinlar, turlicha qarashlar uning mazmun-mohiyatini tushunishga halaqit bermoqda.«O'zbek tilining izohli lug'at»ida:Kompetensiya –(lot. competere layoqatli, munosib bo'lmoq). 1. Muayyan organ yoki mansabdor shaxsning rasmiy hujjatlarda belgilangan vakolatlari doirasi, vakolat. 2. Shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, shu sohani yaxshi bilish darajasi. «Ensiklopedik lug'at»da:Kompetensiya-(lot. competo -erishaman; o'xshayman –to'g'ri kelaman). 1) qonun, nizom yoki b. hujjat bilan konkret organga yoki mansabdor shaxsga berilgan vakolatlar doirasi.«Qisqacha siyosiy lug'at»da: Kompetentli –(lot. competens. mos keladigan, tegishli). 1)biror sohada ma'lumotga ega, shu sohadan xabardor kishi. 2) biror narsani hal qilish, bajarish uchun to'la huquqqa, vakolatga ega. Adabiyotlarda kompetensiya atamasi quyidagi tarkibdan iboratligi keltirilgan:1.Gnoseologik aspekt: bilim, ko'nikma, malaka.2.Subektiv-shaxsiy aspekt: bilimga bo'lgan munosabat (qabul qilish, qabul qilmaslik).3.Jarayonli-faoliyatli aspekt: o'rganish faoliyati negizida yotgan faollik mundarijasi Ana shu tarkibiy qismlarni inobatga olgan holda kompetensiya turlicha tasniflanadi:1.Shaxsiy: sog'liqni saqlovchi; mazmuniy-bahoviy; fuqarolik; o'z-o'zini malakasini oshirish. 2.Faoliyatli: bilishga yo'naltirilgan faoliyat; kasbiy; axborotli.3.Ijtimoiy: sosial aloqadorlik, kommunikativ.Demak, kompetentlik haqida gapirilganda, shaxsning kompetentligi, har bir kasb egasining kasbiy kompetentligi nazarda tutiladi. Shu jihatdan, umuminsoniy va xususiy kompetensiyalar ajratiladi. Savol tug'iladi: Ta'lim tizimida kompetensiya, kompetensiyaviyyondashuv deganda nimani tushunamiz? Rus pedagogikasiga nazar tashlasak, ta'limga kompetentsiyaviy yondashuv XX asrning oxirida kirib keldi. Jamiyatning axborotlashishi natijasida bilimlarning tezlik bilan yangilanishi, olingan bilimlarni qadrini yo'qolishi, yangi bilimlar, ehtiyojning ko'payganligi bunga sabab bo'ldi. Hozirda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligitomonidan joriy etilayotgan yangi tahrirdagi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ham tayanch kompetensiyalarsiz zamonaviy shaxs faoliyatini taassavur qila olmadi. Ta'limda kompetensiyaviy yondoshuv deyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi. Bilim va vaziyat o'rtasidagi aloqani o'rnatish yoki keng ma'noda biror muammoni hal etishda bilim va faoliyatni qo'llay olish layoqatiga ega bo'lgan shaxs kompetentli hisoblanadi. Ta'limda o'qituvchi va o'quvchi kompetensiyasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilgan. Jumladan, A.V.Xutorskiy 7 ta tayanch kompetensiya (ma'naviy, umummadaniy, o'quv-bilish, informasion, kommunikativ, ijtimoiy-mehnat, o'z-o'zini malakasini oshirish)ni keltirsa, V.A.Kalney, S.Ye.Shishov, E.F.Zeyerlar 6 tasini 11(ijtimoiy, kommunikativ, ijtimoiy-informasion, kognitiv, maxsus) keltiradi Yangi



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



asrda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan globallashuv jarayoni dunyo miqyosida ta'limning zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni yukladi. Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalar (kommunikativ, axborot bilan ishlash, shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish)ga ega bo'lishi lozim. Dunyoning rivojlangan davlatlari hamda mamlakatimizda yaratilgan chet tillarni o'qitishning uzluksiz ta'lim tizimi standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish tajribasidan kelib chiqib, ona tili va adabiyot o'quv predmeti bo'yicha boshlang'ich ta'limdan boshlab, akademik lisey va kasb-hunar kollejini bitirgunga qadar o'rganiladigan bilimlar (tushunchalar, qoidalar, qonunlar, ta'riflar) o'quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda darajalangan tizim ishlab chiqildi. Bunda, A1 daraja 1-4-sinflar, A2 daraja 5-9-sinflar, V1 daraja o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining 1-kurslari uchun belgilandi. Shuningdek, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, ona tili va adabiyot faniga tegishli xususiy kompetensiyalarham shakllantiriladi. Ona tili ta'limining samarasiga quyidagi ikkita kompetensiyani rivojlantirish orqali erishiladi: lingvistik kompetensiya; nutqiy kompetensiya. Adabiyot o'quv fani mazmunidan kelib chiqqan holda fanga doir xususiy kompetensiyalar belgilandi: adabiy-nutqiy kompetensiya; badiiy asarni tahlil (analiz, sintez) qilish kompetensiyasi. Ta'lim oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda tushunarli bayon qila olishga o'rgatishdan iborat. Shundan kelib chiqqan holda, adabiy ta'lim oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, og'zaki va yozma nutqi hamda muloqot madaniyati rivojlangan, tushunarli va ravon nutqqa ega shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yildi. Umuman olganda, kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyasi an'anaviy ta'lim mazmun-mundarijasini zamonaviylashtirishni taqozo etadi. Bunga mutaxassislar ham, o'qituvchilar birday mas'uldirlar. Kompetentli shaxs deganda: mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxs tushuniladi. Shuning uchun jamiyat ta'lim oldiga o'quvchi shaxsida fikrlash, o'zgalar fikrini anglash va fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya'ni mustaqil va ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qo'yadi.

Xulosa qilib aytganda, kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim to'g'risidagi qonun hamda O'zbekiston –2030 strategiyasi kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Kelajakda ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qilad

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni, 2020.
2. O'zbekiston –2030 strategiyasi, 2023.
3. Xadjayev B.X. Pedagogik kompetentlik asoslari. Toshkent.
4. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar.
5. Ishmuhammedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar.